



TEKNOLOGIYA FANINI O`QITISHDA DIDAKTIK TAMOYILLARI

FAYZIYEVA ZARNIGOR SAYFI QIZI

Shahrisabz davlat pedagogika institute

Ijtimoiy fanlar fakulteti Texnologik ta'lim yo'nalishi Talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada texnologiya fanini o'qitishda foydalanilgan tamoyillar mazmuni, mohiyati va texnologiya fanini o'qitishda maqsadli va rejali boshqarish mexanizimi haqida ma'lumot beriladi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim, didaktik, kompetentsiya, vosita, maktab, vazifa, kasb, hunar.*

Ma'lumki har qanday amaliy faoliyatda rejaning tuzilishi katta ahamiyatga ega. Buni ishni birinchi bosqichi deb hisoblash mumkin. Boshlangich bosqich qanchalik aniq va to'liq rejalashtirilsa, umumiy va kasbiy ko'nikmalarni egallash jarayoni shunchalik tez va muvafaqqiyatli kechadi. Bu bosqich ta'limning an'anaviy usullari (tushuntirish, ko'rsatish, ko'rsatma berish va boshqalar), har xil modellar, haqiqiy obektlar, ekranli-ovozli kabi ta'lim vositalaridan foydalanish bilan birga olib borilsa samaraliroq hisoblanadi. Keyingi bosqich mehnat operatsiyalarini amaliy bajarishga o'tish. Bunda, birinchi bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish unchalik murakkab bo'lmasligi mumkin (masalan, stanokni ishga tushirish malakasini shakllantirishda: stanokni ishdan to'xtatish, asbob va zagotovkani o'rnatish va olish), lekin tez tez takrorlab turishni talab qiladi, bunda o'quvchining o'zi istagan natijaga olib keluvchi harakatni mustaqil tanlashi kerak. Bu bosqichda tarqatiladigan didaktik materiallar (instruksion kartalar), o'z-o'zini nazorat qiluvchi har xil turdagi trenajyorlarni qo'llash mumkin. Yakunlovchi bosqichda - o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish va natijalarini tahlil qilish, takrorlash uchun asosan haqiqiy obektlar, nazorat qilishning texnik vositalaridan hamda har xil ekranli - ovozli vositalardan foydalaniladi. Bunday bosqichlarga bo'lish shartlidir. Har bir o'qituvchi bunday topshiriqlarni pedagogika nazariyasida yozilgan va pedagogik amaliyotchilar tomonidan tavsiya qilingan ta'lim vositalarining didaktik imkoniyatlarini hisobga olgan holda ijobiy echishi kerak.

Kasb-hunar ta'limi pedagogikasining bo'limlari juda keng. Bu bo'limlar umumiy kasb-hunar ta'limi pedagogikasining asoslarini va asosiy savollarini, kasb-hunar maktab ta'limi pedagogikasi, mehnat pedagogikasi, kasb-hunar ta'limi qiyosiy pedagogikasi, hunar yo'nalishi didaktikasi, mutaxassislikni qayta tiklash (reabilitasiya), shuningdek uchinchi dunyo mamlakatlaridagi kasb-hunar ta'limining asosiy masalalarini o'z ichiga qamrab olgan.

Bundan tashqari, ular kasb-hunar tarbiyasining ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarini, kasb-hunar ta'limi nazariyasini, shuningdek, kasb-hunar ta'limi huquqini ham qamrab olgan.

Ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda «Educational Technology» (ta'lim texnologiyasi) deb nomlanuvchi «kasbiy pedagogikasiga» o'xshash fan mavjud, ammo



ularning mazmunida hych qanday bevosita o'xshashlik yo'q. Bu fanda ham shunday mavzular berilgan: masalan, «audio-vizual vositalar», «o'quv jarayoni», «ta'lim metodlari va strategiyasi», «baholash texnikasi» va boshqalar.

«Ta'lim texnologiyasi» - butun o'qitish va o'qish jarayonini ishlab chiqish, amalga oshirish va baholashning sistematik yo'li bo'lib, u maqsadga erishishga yo'naltirilgan holda, insonlarning o'rganish qobiliyati va insonlar o'rtasidagi muloqot to'g'risidagi tadqiqotlar natijasiga va ta'lim jarayonini yanada samarali tashkillashtirish uchun jonli, jonsiz resurslar bilan shug'ullanishga asoslangan."

(*Commission of Instructional Technology* (Ta'lim texnikasining komissiyasi), AQSh)

«Didaktika» tushunchasi nimani bildiradi?

«Didaktika» tushunchasi (grekcha «didaskhein») «O'qitish va o'qish nazariyasi» degan ma'noni bildiradi.

Didaktika nazariy dars va instruktaj o'tkazishning maqsadi, mazmuni, metod va shart-sharoitlarini belgilaydi.

O'qituvchi va amaliyot o'qituvchisi uchun «didaktika» tushunchasi nimani bildiradi?

Didaktika amaliyot o'qituvchisi va texnika o'qituvchisiga to'g'ri pedagogik munosabat bo'yicha bilimlarni beradi. Keyinchalik esa gap «nimani va nima uchun o'qitish kerak?» va «qaysi tarzda va nimalar yordamida o'qitish kerak?» mavzulari orasidagi munosabat to'g'risida boradi.

Bunda quyidagi savollar asosiy rol o'ynaydi:

O'qish va o'qitish jarayonida qanday maqsadlarga erishilishi lozim?

Qanday mazmunlarni o'qitmoq kerak?

Qanday dastlabki shart-sharoitlarga e'tiborni qaratmoq lozim?

O'qitish jarayonining qanday shaklini rejalashtirmoq kerak?

Har qanday sharoitda ham quyidagilarga e'tiborni qaratmoq darkor:

O'quvchilar qanday bilimlar zahirasiga ega?

Ta'lim beruvchi shaxslarga qanday talablar qo'yiladi?

«Nima?», «nima uchun?» degan savollarga javob o'qish maqsadlari asosida belgilanadi.

Shunday qilib «nima?» degan savol nazariy va amaliy darslardagi mavzular va mazmunlarni anglatadi. Bunday sharoitda eng asosiysi mazmun hisoblanadi.

«Maxsus didaktika» didaktika va biror aniq yo'nalishdagi maxsus fanning mazmunlari bilan aloqa o'rnatishga harakat qiladi.

Maxsus didaktikada e'tibor o'quv amaliyotining maxsus muammolariga qaratiladi. «Texnik chizmalar» sohasining maxsus didaktikasi «Matematika» sohasining maxsus didaktikasidan ma'lum detallar orqali ajralib turishi kerak.

Didaktikaning metodika bilan o'zaro bog'liqligi

Didaktika va metodika (uslubiyot) bir-biri bilan uzviy bog'liq.

Metodika deganda ilmiy usullar xakidagi fan tushuniladi. Bu fan didaktikaning bir bo'limidir.



Didaktika «nima» va «nima uchun» o'qitish kerak degan savollar bilan shug'ullansa, u bilan uzviy bog'liq holda metodika esa «qaysi tarzda» va «nimalar yordamida» o'qitish masalalari bilan shug'ullanadi. Bunda amaliy usullar tizimi maxsus sohaning mazmuniga bog'liqligini xisobga olish zarur.

Boshqacha qilib aytganda, o'qitish metodikasi – bu turli hil yo'llar va usullar tizimi bo'lib, o'quv-didaktik materiallaridan foydalanib, belgilangan maqsadlarga erishish uchun nazariy dars va instruktaaj paytida qo'llaniladi.

Didaktika va metodika bir medalning ikki tomonidir; «Nima uchun va nima». Ya'ni didaktika, «Qaysi tarzda va nimalar yordamida», ya'ni metodikani belgilaydi.

Misol uchun, nazariy dars o'qituvchisi «matematika» darsida boshqacha usullarni qo'llaydi, ustaxonada «Eniga yo'nish» (prodolnaya obtochka) mavzusi bo'yicha instruktaaj berayotgan amaliyot o'qituvchisi esa boshqacha usullarni qo'llaydi. Ikkala hol ham nazariy bilimlarni berish jarayonlaridir.

Ya'ni yaqqol ko'rinib turibdiki, ularning maqsad, mazmun, qo'llangan usullari hamda o'quv-didaktik materiallari va qo'llanadigan baholash usullari bir biridan farqlanadi.

Didaktik tamoyillar

Didaktik tamoyillar nazariy dars va instruktaaj mazmunlari, usuli va tashkil qilinishiga tegishlidir. Didaktik tamoyillar o'qitish va o'qish jarayonida qoidalar sifatida qo'llanish uchun ishlab chiqilgan. Ularni har doim ham bir biridan aniq ajratib bo'lmaydi.

Quyidagi prinsiplar qandaydir tushunchalar emas, balki o'qitish va o'qish vaziyatlarini samarali tashkil qilish bo'yicha qoidalar bo'lib, kasb-hunar ta'limi amaliyotining tajribasiga asoslangan.

1.Faollik tamoyili

O'quvchi o'zi harakat qilgan paytda eng yaxshi o'rganadi va o'zlashtiradi. Shuning uchun o'quv vaziyati shunday tashkil qilinishi kerakki, o'quvchi bir-necha ish-harakatlar qilishi kerak bo'lsin.

O'quvchilar har bir darsda unumli ravishda faol bo'lishi lozim, chunki o'zi nimanidir qilayotgan paytda o'quvchi bu narsani ongliroq ravishda o'zlashtiradi va bu bilim xotirasida chuqurroq o'rinish qoladi.

Buning natijasida o'quvchilar bilimlarni yaxshiroq va chuqurroq o'zlashtiradi va eslab qoladi hamda ularning qiziqishi ortadi. Ba'zi bir kvalifikasiyalarga esa, masalan mustaqillik va individual ravishda o'rganish kabi qobiliyatlarga faqat shu tarzda erishish mumkin xolos. Buning uchun, albatta, instruktor yoki o'qituvchi juda yaxshi uslubiy qobiliyatlarga va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

2.Nazariya va amaliyotni bir biri bilan bog'lash tamoyili

Nima o'qitilayotgan yoki o'qilayotgan bo'lsa ham, bu narsa albatta amaliyotga taalluqli bo'lishi shart. Bu o'quvchilarning o'qishga ishtiyog'ini kuchaytiradi, chunki ular kasb-hunar amaliyotida haqiqatdan ham qo'llaniladigan bilimlarni o'rganayotganliklarini biladi.



Nazariy bilimlar doim kasb-hunar amaliyoti bilan bog'lanishi lozim. Amaliy ta'lim ham o'z navbatida nazariy bilimlarga asoslangan bo'lishi kerak.

3. Ko'rgazmalilik tamoyili

Mashg'ulot jarayonida o'quvchilarning individual o'rganish-o'zlashtirishini kuchaytirish uchun o'quv materialini o'zlashtirish paytida iloji boricha ko'prok sezgi organlari ishga solinishi kerak. Bilimlarni iloji boricha ko'rgazmali va real hayotga yaqin qilib taqdim qilish - bir tomondan tilning tushunarligini va ta'lim jarayonida audio-vizual vositalardan foydalanishni talab qilsa, ikkinchi tomondan, u bevosita ish xolatida va real obyektlarda o'qitishni talab qiladi. Dars jarayonida bilimlarni ko'rgazmali berilsa, o'quvchilar bu bilimlarni o'zlashtirishlari osonlashadi va o'quv jarayoni yanada qiziqarli bo'ladi. Real obyektlarda o'qitish doim eng birinchi o'rinda turishi kerak.

4. Tushunarlilik tamoyili

O'quv materialining mazmuni shunday tanlangan va tuzilgan bo'lishi kerakki, o'quvchilar uni o'zlarining avvalgi bilimlari bilan bog'lay olishlari va uni tushunishda qiynalmasligi lozim. Ya'ni o'quv materialining mazmuni, shuningdek o'qituvchi va instruktorning tili va fikrlarini ifodalash usuli o'quvchining bilim saviyasiga mos kelishi lozim, ammo bu o'qituvchi ilmiy tildagi terminlardan foydalanmasligi kerak degani emas. (karang: «Ta'limning asosiy koidalari»)

5. Namunalardan foydalanish tamoyili

O'qituvchi yoki instruktor o'quv materialining mazmunini tushuntirish uchun har doim yaxshi namunalarni tanlashga harakat qilishi kerak. Yaxshi model, amaliyotdan tipik misollar, yaxshi hamda yomon maxsulotlar ham kutilgan darajadagi natijaning sifati qanday bo'lishi yoki bo'lmasligini aniq ko'rsatadi.

6. Didaktik reduksiya tamoyili

Berilayotgan bilimlarni o'rgatish uchun bu bilimlar kerakli miqdorgacha qisqartirilishi lozim. O'quv materialining hajmi juda kattaligi sababli, undan aynan kasb-hunar vazifalarini bajarish uchun kerakli qismlar tanlab olinishi kerak.

Kompleks (umumiy) va murakkab topshiriklar doimo didaktik ravishda osonlashtirilishi lozim, lekin ma'nosi o'zgarmasligi shart.

Shuning uchun, agar faqat boshlang'ich bilimlar kerak bo'lsa, o'quv materialini iloji boricha oddiyroq tushuntirishga va nihoyatda ko'p va keng o'quv materiali bilan o'quvchini qiynamaslikka harakat qilish kerak. Tajribali o'qituvchi murakkab narsalarni oson so'zlar bilan tushuntira oladi.

7. Ilmiylik tamoyili

O'quv materiali shunday tanlanishi kerakki, u haqiqiy va ilmiy jixatdan aniq tasdiqlangan yoki ilmiy tadqiqotlar asosida sinalgan bo'lishi kerak, shuningdek, fanning yangi yutuqlari va kashfiyotlarini o'zida aks ettirishi lozim. O'qituvchining taxminiga yoki subyektiv fikriga asoslangan material qo'llanmasligi kerak. O'qituvchi o'rgatgan bilimlar albatta nazariy tasdiqlangan va amalda sinalgan bo'lishi shart.

8. Bilimlarni qo'llash tamoyili



O'qituvchi o'rgatgan bilimlarni o'quvchilar amalda ko'llay bilishlari kerak. Shuning uchun ham bu bilimlar ko'llanarli va amaliy vaziyatda sinalgan bo'lishi zarur. Bunday amaliy vaziyatlar o'qituvchi tomonidan (eksperiment, tajriba...asosida) yaratilishi lozim.

9. Natijalarni mustaxkamlash tamoyili

Kishi ko'rgan, eshitgan yoki qilgan narsalar tez unutilishi mumkin. Shu sababli albatta mashqlar o'tkazish va muammo hamda savollar echimini topish zarur. O'qishdagi muvaffaqiyat baholanishi va tan olinishi kerak. Bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida doimiy o'zaro aloqa bo'lishini talab qiladi, natijalar esa maxsus «Baholash varoqlari»da qayd qilinishi kerak.

Ma'lumki, didaktik prinsiplari bilan bir qatorda o'qitishning asosiy qoidalari ham bor. Ular, umuman olganda, o'qituvchi faoliyatining yo'l-yo'rig'i sifatida xizmat qiladi, alohida olganda esa tushunarliklik prinsipini qo'llab-quvvatlaydi.

O'qitishning asosiy qoidalari:

- Tushunarlikdan tushunarsizga
- Yaqindan uzoqqa
- Osondan qiyinga
- Aniqdan mavhumga
- Umumiydan xususiyga
- Umumlashtirilgandan yakkaga

Didaktik xatti-harakatlar

Didaktik xatti-harakatlar deganda, biz o'qituvchining ta'lim jarayonini didaktika va metodika bilimlarini qo'llash orqali tashkillashtirish xatti-harakatlarini tushunamiz.

Xulosa

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida asosan Amaliy Mashg'ulotlar shaklida o'tiladigan texnologik talimi jarayonida o'qitish vositalari asosiy o'rinni egallaydi. Bunda shakllantiriladigan umummehnat ko'nikma va malakalarning tarkibiy qismlarini aniqlash uchun o'qitish jarayonlari bosqichlari, pedagogik va psixologiyada hamda xususiy metodikada ko'nikma va malakalar xususiyatlari, ushbu muammoga bildirilgan fikrlar to'grisidagi fikrlarning tahlili natijasida o'qitish vositalari tavsifiga ko'ra tasnifi ishlab chiqildi. O'quv didaktik vositalardan foydalanishda ularni muayyan maqsad, mo'ljallangan guruh, maxsus soha va usullarga mos holda tanlash muhim o'rin tutadi. Va nihoyat amaliyot ukituvchisi o'quv va ko'rgazmali vositalarni ishlata olishni va ulardan maqsadga muvofik va oqilona tarzda foydalanishni bilishi kerak. Texnik vositalardan foydalanayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni hal qila oladigan bo'lishi lozim. O'quv va didaktik materiallarni ishlatishda albatta ularning mavjudligi katta rol uynaydi. Amaliyot o'qituvchisi, shuningdek, texnologik ta'lim o'qituvchisi o'z maxsus sohasi uchun qanday materiallar, qanday yangiliklar borligiga, shuningdek, qaysi maxsus sohalarda uning o'zi yangiliklar qilishi kerakligi yuzasidan umumiy tushunchaga ega bo'lishi lozim. Ko'pincha o'qituvchilar doska tasvirlari, flipchart tasvirlari va proyektor slaydlari kabi vizual vositalarni o'zlari ishlab chiqadilar.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Boltaboev S.A, Magdiev O.SH. Mehnat va kasb ta`limi metodikasidan amaliy mashg`ulotlar (Metodik qo`llanma). T.: TDPU, 2002.
2. Davlatov K. Mehnat va kasb ta`limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. – T.: «O`qituvchi», 1992.
3. Davlatov K. Mehnat va kasb ta`limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg`ulotlar: Pedagogika instituti o`quvchilari uchun qo`llanma. – T.: «O`qituvchi», 1995.
4. M. Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi, «Nasaf», 2000.

